

TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI VA ULARNING MOHIYATI.

*Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
Qurbonova Shoira Narzullayevna.*

Annotasiya: Maqola mazkur jarayon borasida aniq tasavvurga ega bo'lishimizga imkon yaratadi. Shu bois quyida texnologiya fanining asosiy didaktik tamoyillari va ularning mohiyati xususida fikrlar bayon etilgan. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida texnologiya fani quyidagi tamoyillarga asoslanib o'qitiladi.

Kalit so'zlar: o'quv faoliyati, mehnat faoliyati, fan, motivatsiya, intellektual qobiliyat, amaliy faoliyat. so'z yuritmoqchimiz.

Аннотация: *В статье приведены основные дидактические принципы обучения технологии и их сущность, а также принцип научности и системности на уроках технологии - научно обосновано освоение учащимися данной темы.*

Ключевые слова: учебная деятельность, трудовая деятельность, предметно-практическая деятельность, мотивация, интеллектуальные умения.

Annotation: The article allows us to have a clear idea about this process. Therefore, below are the main didactic principles of technology science and ideas about their essence. Technology is taught in general secondary educational institutions based on the following principles.

Keywords: educational activity, labor activity, practical activity, motivation, intellectual skills.

Texnologiya darslarini onglilik va faollik tamoyili asosida o'qitish - o'quvchilarda ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustaqillik,

tafakkur, nutqi rivojlanadigan bo'ladi. O'qitishdagi onglilik tamoyili o'quvchilardagi ta'lim jarayonining aniq maqsadlarini tushunish, o'rganilayotgan dalil, hodisa, jarayonlar va ular o'rtasidagi bog'lanishni tushungan holda o'zlashtirib olish, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llay bilish kabi me'yorlarni anglatadi.

O'quvchilardagi mavjud bilim va ko'nikmalariga tayanib, obrazli taqqoslash usulidan foydalanib, har bir so'z va gapning tom ma'nosini ochib berish qoidasi. O'quvchilarning o'zaro o'qitish kuchidan unumli foydalanib, qo'yilgan savollarga jamoa bo'lib javob topish qoidasi. O'quv fanini hech qachon dars markaziga qo'ymay, dars markazida doimo o'quvchi turishini, uning shaxsi shakllanayotganini bilgan holda talabaga ta'limiy ta'sir o'tkazish qoidasi. O'qitish jarayoni yanada muvaffaqiyatli o'tishi uchun, har bir tushuncha berilganidan keyin, uni bir necha misollar bilan mustahkamlash qoidasi. Hech qachon o'qituvchi aytganlarini qaytarish, birovlardan ko'chirish va aytib turish hollariga yo'l qo'ymaslik bilan, o'quvchi talabalarni mustaqil fikrlashga va harakat qilishga o'rgatish qoidasi. Berilayotgan bilimni har tomonlama tahlil qilib berish yo'li bilan bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish qoidasi. Texnologiya darslarida ilmiylik va tizimlilik tamoyili - o'quvchilarga o'rgatish uchun ilmiy jihatdan asoslangan, amalda sinab ko'rilgan ma'lumotlar berilishini talab etadi. Ularni tanlab olishda fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlari va kashfiyotlaridan foydalanish kerak. Ilmiy bilimlarni egallash jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, tafakkur rivojlanadi. Har bir darsda o'qitiladigan o'quv materialining ilmiy mazmuni keng va chuqur bo'lishi o'quvchida nafaqat bilim, balki tafakkur hosil qilishi hamda uning ijodiy qobiliyatini shakllantirishi kerak. Buning uchun esa o'qituvchi o'z ilmiy saviyasini izchil ravishda oshirib borishi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kashfiyotlar va ilmiy yangiliklardan xabardor bo'lishi lozim. O'quvchi o'rganayotgan bilimlar, albatta nazariy tasdiqlangan va amalda sinalgan bo'lishi kerak. Tizimlilik va izchillik tamoyili asosida o'qitish o'qitishni shunday tashkil etishni talab etadiki, bunda o'quv fanlarini o'qitish qat'iy mantiqiy tartibda olib boriladi. O'quvchilar bilim ko'nikma

va malakalarini izchillik bilan egallab boradilar va ayni paytda amaliy vazifalarni hal qilish uchun ulardan foydalanishni o'rganadilar. Tizimlilik va izchillik tamoyili pedagogik jarayonning hamma bo'g'inlarida amalga oshiriladi. Uning talablari darsliklar va dasturlarni tuzishda o'z aksini topadi. O'quv materialini to'g'ri taqsimlash ya'ni oddiydan murakkabga, oddiy operatsiyalardan qiyinroq operatsiyalarni bajarishga o'tishni talab qiladi.

Pedagogik amaliyotda bu tamoyilning ishlashi quyidagi qoidalar orqali amalga oshiriladi.

1. O'quvchilar tomonidan bilimlar tizimi to'liq o'zlashtirib olinishi uchun beriladigan bilimlarni mantiqiy tugallangan bilim bo'laklariga ajratib o'qitish.
2. Mazmunini to'liq ochib berishga ko'zingiz yetmagan biron bir savol va muammoni dars rejasiga kiritmaslik.
3. Mantiqiylikni hech qachon buzmaslik, buzilgan taqdirda o'zlashtirilmaslikning oldini olish uchun uni darrov bartaraf etishlik.
4. O'quv fani - katta bir fanning kichraytirilgan modeli ekanini tushuntirib, fanlararo bog'liqlikni ko'rsatib berishlik.
5. Nazariy bilimlarning o'zlashtirilishi to'g'ri ketayotganini doimo tekshirib borishlik: o'rganilayotgan ob'yekti, predmeti, nazariy asoslari, asosiy tushunchalari, nazariyasi va uning qo'lanishi chegaralarini doimo eslatib, ularning bajarilishini tekshirish.
6. Doimo esda tutish lozimki, kunda eshitib, go'yoki yaxshi bilgan narsani tushuntirib, ilmiy asoslab berish qiyin bo'ladi. Shuning uchun bolalardagi avvalgi bilimlari va mantiq usullaridan doimo foydalanish zarurligi.
7. Boshlang'ich, umumta'lim va oliy ta'lim bosqichlaridagi bilim mazmuni va uni berish usullari orasidagi muvofiqlikni saqlash.
8. O'qitishning ilg'or usullaridan doimo foydalanish.
9. O'qitishda tizimlilikni va muntazamlilikni saqlash uchun, avval o'tilgan bilimlarni doimo qaytarib turish.

10. O'tgan bilimlarni qaytarish usulidan, faqat dars boshida va uni yakunlayotganda foydalanib qolmay, har bir bilimni tushuntirilayotganda ham undan foydalanish.
11. O'tgan bilimlar bilan tez kirishib ketuvchi yangi gaplardan boshqa yangi fikrlarni bildirmaslik.
12. O'quvchilar til savodxonligini faqat til o'qituvchilari kuzatib boribgina qolmay, barcha o'qituvchilar ham bu ishni bajarishlari lozimligi.
13. Sabr va chidam bilan hamda uzluksiz ravishda bolalarni mustaqil fikr yuritishga va bilimlarni mehnat qilib topishga o'rgatish.
14. Bolalarga o'qishning istiqbolini doimo eslatib turish.
15. Har bir bo'lim oxirida, albatta, umumlashtiruvchi mashg'ulotlarni amalga oshirish.
16. Bolalar javobida uchrab turadigan xatolarni doimo tuzatib borish.
17. Charchab qolgan bolalar faoliyatini hech qachon sun'iy ravishda faollashtirishga harakat qilmaslik, faollashtirishda bolalar jismoniy va aqliy imkoniyatidan kelib chiqish.
18. Bolalardan egallagan bilimiga ko'nikma va malaka hosil qilishni talab qilish.
19. Esda saqlash lozimki, majmuaga tushgan bilim esdan chiqmaydi. Esdan chiqib qolsa, majmua orqali uni darrov esga tushirish oson.
20. Ya.A.Komenskiyning - hamma narsa uzluksiz ketma-ketlikda olib borilishi kerak, bugungi aytganlaringiz kechagisini mustahkamlashi va ertangi aytganingizga yo'l ochib berishi kerak degan nasihatini unutmaslik qoidasi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Qurbonova S. N., Abdullayeva F. TARBIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 6. –С.1030-1035.
2. Mukhamadovna T. M., Djamshitovna K. M., Narzullayevna Q. S. Art as a significant factor of forming world outlook of students //Middle European ScientificBulletin.–2021.–Т.11.
3. Kurbanova S. Art as a significant factor of forming world outlook of students //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
4. Narzullaevna K. S., Nilufar T. Methodology for conducting technology lessons on working with paper and cardboard //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL.– 2021. – Т. 11. – №. 1. – С. 588-596.
5. Samadovna R. Z., Narzullayevna K. S., Ergashevna S. G. Technology for the development of logical thinking in students in primary school //Journal of Critical Reviews. – 2020. – Т. 7. – №. 6. – С. 485-491.
6. Kurbanova, S. (2021). Barkamol avlodni shakillanishida talim jarayonini ornini va unda zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanish yollari. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).
7. Qurbonova Sh.N. Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiya turlarining qo'llanishi //“Pedagogik mahorat” Maxsus son. –Т., 2020. -102 bet.
8. Narzullaevna, K. S. (2021). The Role of Educational Process in the Formation of a Harmoniously Developed Generation and Methods of using Modern Teaching Technologies.
9. Kurbanova, S. N., & qizi Razzoqova, N. B. (2022). BARKAMOL AVLODNI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM JARAYONINING O'RNI VA UNDA ZAMONAVIY O'QITISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar, 1(10), 84-88.
10. Olloqova O'g'iljon, M. (2022). Development of Students' Pragmatic Competence through Phonetic Knowledge. International Journal of Trend in Scientific Research and Development, 6(6), 1541-1545.
11. Mamanazarova, O. O. (2022). ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA HIKOYANI TAHLIL QILISH ORQALI O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH. Scientific Impulse, 1(5), 694-699.
12. Mamanazarovna, O. O. (2022). O'QUV JARAYONIGA INTENSIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY QILISHNING AHAMIYATI. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 1(9), 67-70.
13. Olloqova, O. (2022). УЧАЩИЕСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА ОРГАНИЗАЦИЯ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО

ПОДХОДА. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu. Uz*), 8(8).

14. Jobir o'g'li, Y. M., & Roziyabonu, S. (2022). 1-SINF MATEMATIKA DARSLARIDA GEOMETRIK MATERIALLARNI O'RGATISH. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 1(9), 132-137.

15. YARASHOV, M. (2023). The Place of Digital Technologies in the Education System. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 30(30).

16. YARASHOV, M. (2023). Methodology of Application of Digital Technologies in Primary Education. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 30(30).

17. YARASHOV, M. (2023). The Process of Creative Organization of Primary School Mathematics Education through Digital Technologies. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 30(30).

18. YARASHOV, M. (2022). Characteristics of International Integration of Sciences in Primary Schools. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 23(23).

19. Yunus, Y. S., & Bahrilloyevna, B. F. (2022). BOSHLANG'ICH SINFLARDA ULUSH VA KASR TUSHUNCHASI. *Scientific Impulse*, 1(5), 767-773.

20. Yunus, Y. S. (2022). MODERN APPROACH TO TEACHING ELEMENTS OF ALGEBRA IN PRIMARY CLASS MATHEMATICS LESSONS. *Scientific Impulse*, 1(5), 774-780.

21. Yusufzoda, S. (2023). ALIFBE DAVRIDA YOZUV TEXNIKASINI O'RGATISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 27(27).

22. Yunus, Y. S., & Hikmatovna, N. M. (2022). WAYS OF EFFECTIVE USE OF EDUCATIONAL METHODS AND TOOLS. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 1(9), 148-152

23. Башинова, С. Н., Кокорева, О. И., Пешкова, Н. А., & Хамдамова, В. А. (2022). Детерминированность развития социально-бытового поведения дошкольников с расстройством аутистического спектра типом родительского отношения